



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends in Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## STUDIES OF NON-STATIONARY VIBRATIONS OF A CYLINDRICAL BELT-ELASTIC ROD

Hakim Alimov<sup>1</sup>

Jonibek Ganiyev<sup>2</sup>

*Jizzakh State Pedagogical University*

---

### KEYWORDS

elastic stern, vibrations,  
differential equation

---

### ABSTRACT

The general equations of the torsional vibration of a circular elastic steering wheel are derived in the article. Classical and refined equations were found separately from the obtained general equations.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.13923763](https://doi.org/10.5281/zenodo.13923763)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Senior teacher of the Department of Mathematics Teaching Methodology, Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan ([yakim-alimov@mail.ru](mailto:yakim-alimov@mail.ru))

<sup>2</sup> Graduate student, Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

# SILINDRIK QAYISHQOQ-ELASTIK STERJENNING NOSTATSIONAR TEBRANISHLARI TADQIQOTLARI

KALIT SO'ZLAR/

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**elastik sterjen, tebranishlar,  
differensial tenglama**ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ**

Maqolada doiraviy elastik sterjening buralma tebranishining umumiy tenglamalari keltirib chiqarilgan. Olingan umumiy teglamalardan xususiy holda klassik va aniqlashtirilgan tenglamalari topgan.

Bernulli statik egilishning differensial munosabatlarini olguniga qadar deformatsiyalanuvchi sterjenlar egilishi haqidagi tadqiqotlar nashr etilmagan. Bu tadqiqotlarni undan keyin L.Eyler (1744) davom ettirdi. Ushbu tenglama ko'ndalang inersiya kuchini hisobga oluvchi dinamik had bilan to'ldirildi. Shunday qilib balkaning ko'ndalang tebranish differensial tenglamasi hosil qilindi va u klassik yoki Eyler-Bernulli tenglamasi deb atala boshladi.

Sterjen uzunligi bo'yicha bir jinsli bo'limgan, balkaning tebranish differensial tenglamasining ko'rinishi quyidagicha

$$\frac{\partial^2}{\partial x^2} \left( EI \frac{\partial^2}{\partial x^2} \right) + \rho F \frac{\partial^2 U}{\partial t^2} = q \quad (1)$$

$$M = EI \frac{\partial^2}{\partial x^2}, \quad Q = \frac{\partial^2 M}{\partial x}; \quad (2)$$

bunda  $x$  – bo'ylama koordinata,  $t$  – vaqt,  $U$  – qaralayotgan nuqtaning sterjening markaziy o'qidan chetlashishi,  $M$  – eguvchi moment,  $Q$  – qirquvchi kuch,  $q$  – taqsimlangan kuch,  $F$  – ko'ndalang kesim yuzi,  $E$  – yung moduli,  $\rho$  – zichlik.

Sterjening klassik egilish nazariyasi tekis kesimlar gipotezasiga asoslangan: dastlabki ko'ndalang kesimdagi tekislik egilishdan keyin ham balkaning ko'ndalang tolalariga normalligicha qoladi. Ko'ndalang va bo'ylama tolalar bo'yicha kuchlanishlarni hisobga olmasa ham bo'ladigan darajada kichik. Tekis kesimlar gipotezasi tajribalardan katta aniqlikka ega.

Aksaryat materiallar uchun Puasson koeffisiyenti ( $\nu > 0$ ) nolga teng emas va uning ta'siri bo'ylama cho'zilishda yon tomondan siqilishga, bo'ylama siqilishda yon tomondan kengayishga olib keladi. Bundan ko'rindiki tekis kesimlar gipotezasi egilish vaqtida ko'ndalang kesimdagi nuqtalarning ko'chishini cheklamaydi. Keltirilgan (1.1) tenglamadan sterjening tebranish tadqiqotlarida J.Fure (1818) J.Bussinesk (1883) va boshqalar foydalanganlar. Sterjening ko'ndalang tebranish klassik nazariyasi, sterjen elementlarida aylanish inersiyasi ta'siri hisobga olinganda va ko'ndalang siljish deformatsiyalarining ifodasi S.P.Timoshenko tomonidan taklif etilgan.

Keltirilgan yechimlar sterjen statik egilganda ko'ndalang siljish deformatsiyasi muhim ekanligini ko'rsatadi. Statik holatda ko'ndalang siljish deformatsiyasini rezinali sterjenlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin [7]. Siljish deformasiyasi kuchlanish konsentratorlar yaqinidagi biror atrofida bilinadigan yassi ko'ndalang kesimning buzilishiga olib keladi (jamlangan kuchlar, chetlar, jamlangan massalar, qattiqlik yoki zichlik sakrashlari va h.k.) konsentratorlarini bevosita uch o'lchovli elastiklik nazariyasi doirasida muhokama etish zarur.

Dinamik masalalarda bundan tashqari tebranish modellari bilan bog'liq ko'ndalang kesimlarining tuzilishi mumkinligini ta'kidlaymiz; vaqt bo'yicha o'zgaruvchilar, maydonlar katta gradiyentlar zonalarida elastiklik nazariyasi klassik modeli to'g'ri kelmasligi mumkin.

Yaxlit sterjen tebranishlari haqidagi masalani qarab S.P.Timoshenko past chastotalarda ko'ndalang kesimi deformatsiyasining kichik ta'siri chastotaning oshishi bilan o'sadi degan xulosaga kelgan.

Bu uzunlik birligiga buralish to'lqinlari sonining oshishi bilan izohlanadi. S.P.Timoshenko [21] ishlariga tayanib ko'ndalang siljish deformasiyasi va aylanish inersiyasini hisobga olib bir jinsli prizmatik sterjen buralma tebranishlari to'lqin tenglamasini yozamiz. Urinmaning egrilik chizig'iga og'ish burchagi  $\frac{\partial w}{\partial x}$ , bu holda buralma deformasiyalari,  $\psi$  egrilik va neytral o'q oldidagi  $\gamma$  siljishlardan iborat, ya'ni

$$\frac{\partial w}{\partial x} = \psi + \gamma \quad (3)$$

Egувчи moment  $M$  va  $Q$  ko'ndalang kuchlar ifodalari quyidagicha:

$$M = EI \frac{\partial \psi}{\partial x}, \quad Q = kGF \left( \frac{\partial W}{\partial x} - \psi \right); \quad (4)$$

Sterjen cheksiz kichik elementining aylanish inersiyasi hisobga olinganda chiziq tekisligiga perpendikulyar  $k$  nuqta orqali o'tuvchi o'qqa nisbatan harakat tenglamasi quyidagicha:

$$-\frac{\partial M}{\partial x} dx + Qdx = \rho I \frac{\partial^2 \psi}{\partial t^2} dx; \quad (5)$$

Olingan elementning  $oy$  - o'qqa nisbatan harakat tenglamasi ushbu ko'rinishga ega

$$\frac{\partial Q}{\partial x} dx = \rho F \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} dx - qdx; \quad (6)$$

(4) munosabatni hisobga olsak (5) va (6) tenglamalardan ikkita harakat differensial tenglamalariga ega bo'lamiz

$$EI \frac{\partial^2 \psi}{\partial t^2} + kGF \left( \frac{\partial w}{\partial x} - \psi \right) = \rho I \frac{\partial^2 \psi}{\partial t^2} \quad (7)$$

$$kGF \left( \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} - \frac{\partial \psi}{\partial x} \right) + q = \rho F \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} \quad (8)$$

Bu differensial tenglamalardan  $\psi$  ni yo'qotib Timoshenko tomonidan aniqlangan balka tenglamasiga ega bo'lamiz

$$EI \frac{\partial^4 w}{\partial x^4} + \rho F \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} - \left( \rho I + \frac{\rho EI}{kG} \right) \frac{\partial^4 w}{\partial x^2 \partial t^2} + \frac{\rho^2 I}{kG} \frac{\partial^4 w}{\partial t^4} = q - \frac{EI}{kGF} \frac{\partial^2 q}{\partial x^2} + \frac{\rho I}{kGF} \frac{\partial^2 w}{\partial t^2}; \quad (9)$$

Agar (9) tenglama tarkibidagi  $k$  bo'lgan hadni hisobga olmasak, undan Releyning aylanish inersiyasi hisobga olingan tenglamasiga ega bo'lamiz. Chegaraviy masalalarini yechishda (7) va (8) aniqlashtirilgan tenglamalar (2) va (3) munosabatlarga mos holda cheraviy shartlar bilan to'ldiriladi. Bunda chegaraviy shartlar korrektligi haqidagi masala muhim hisoblanadi. Ba'zi ishlarda [9, 10, 11] Timoshenkoning tenglamalari klassik nazariya chegaraviy shartlari bilan yechilgan, bu esa nokorrekt.

$w - y$  o'qi bo'yicha ko'ndalang siljish va  $x$  o'qi yo'nalishida bo'ylama siljishning aproksimatsiyalariga asoslangan.

$$w(x, y, z, t) \equiv w(x, t) \quad (10)$$

$$U(x, y, z, t) = \frac{\partial w}{\partial x} y + \varphi(x, t) f(y); \quad (11)$$

ko'rinishidagi Timoshenko modelining keng tarqalgan tavsifini keltiramiz, (1.11) dagi ikkinchi qo'shiluvchi ko'ndalang kesimlar buzilishini, ya'ni ularning tekislikdan siljishini hisobga oladi. (10) va (11) larni hisobga olib kuchlanishlar uchun ifodalar

$$\sigma_x = E \frac{\partial U}{\partial x} = E \left[ -\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} y + \frac{\partial \varphi}{\partial x} f(y) \right]; \quad (12)$$

$$\tau_{xy} = G \left( \frac{\partial U}{\partial y} + \frac{\partial w}{\partial x} \right) = G \varphi(x, y) f'(y); \quad (13)$$

ko'rinishni oladi.

Klassik nazariyadagi ko'ndalang normal kuchlanishlar va (12) o'q deformasiyasi bilan bog'lanish ko'ndalang  $\sigma_y$  va bo'ylama  $\sigma_x$  kuchlanishlarni hisobga olmasdan qabul qilinadi.

Integral kattaliklarga o'tib, eguvchi moment va ko'ndalang kuch uchun quyidagi ifodalarni olamiz

$$M = -EI \left( -\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + k \frac{\partial \varphi}{\partial x} \right); \quad (14)$$

$$Q = -GF_\varphi(x, t) \quad (15)$$

(14) va (15) formulalardan ko'rindiki bu yerda  $k$  – korrektlovchi koeffisiyent,  $\varphi$  – ko'ndalang kesimda siljishning o'rtacha burchagi kesim tekisligi buzilishi taxminiy xarakterlovchi  $f(y)$  – funksiya ko'rinishi shunday tanlanadiki, kesimda urinma kuchlanishlar taqsimoti elementar nazariyadagi kabi

$$\tau_{xy} = \frac{QS}{Ib}; \quad (16)$$

D.I. Jukovskiy formulalariga ko'ra bo'lishi lozim. Shuning uchun (12), (13) va (16) dan

$$f'(y) = -\frac{FS(y)}{Ib}, \quad k = \frac{1}{I_F} \int f(y) y dF; \quad (17)$$

kelib chiqadi.

(17) formulalar  $k$  korrektlovchi koeffisiyent kattaligini hisoblashga imkon beradi

(masalan, to'g'ri to'rtburchakli kesim uchun  $k = 615$ )

$$\psi = \frac{\partial w}{\partial x} - k\varphi; \quad (18)$$

bog'lanishni kiritib

$$M = EI \frac{\partial \varphi}{\partial x}, \quad Q = -\frac{GF}{k} \left( \frac{\partial w}{\partial x} - \psi \right); \quad (19)$$

ifodalarni olamiz, ular (7) va (8) tenglamalarga olib keladi. (3), (18) va (19) tenglamalarni taqqoslashdan  $k\varphi = \gamma$  kelib chiqadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Филиппов И. Г, Чебан В. Г.Математическая теория колебаний упругих и вязкоупругих пластин и стержней. –Кишинев:Штиинца, 1988. – 190 с.
- 2.Худойназаров Х.Х.-Нестационарное взаимодействие цилиндрических оболочек и стержней с деформируемой средой.
- 3.Кубенко В.Д. Нестационарное взаимодействие элементов конструкций со средой.- Киев: Наук. думка, 1979.-188 с.
- 4.Петрашень Г.И. Проблемы инженерной теории колебаний вырожденных систем // Исследования по упругости и пластичности. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1966. - №5. – С. 3-33.
- 5.Уфлянд Я.С. Распространение волн при поперечных колебаниях стержней и пластин. Прикл. матем. и мех., 1948, 12, №3, 287-300.
- 6.Кабулов В.К. О волновых уравнениях колебания балок, пластин и оболочек. В сб. Вопр. вычисл. матем. Ташкент, АН УзССР, 1963, 104-139- РЖМех, 1964, 3B195.
- 7.Худойназаров Х.Х, А.Абдулаев Эластик назарияси масалаларини сонли ечиш. СамДУ, Самарқанд, 1995.
- 8.Худойназаров Х.Х., Исматова Ф. Основные направления развития уточненных теорий колебания цилиндрических оболочек// Сб.науч.работ.-Изд-во СамГУ, 1997г. - С
- 9.Худойназаров Х. Продольно-радиальные колебания круговой цилиндрической вязкоупругой оболочки, находящейся в деформируемой среде//Проблемы динамики взаимодействия деформируемых сред. Материалы III Всесоюзной конференции. Горис. 4-8 июня 1990 г.-Ереван: 1990.-С.21-26.
- 10.Тюманок А. Неусстановившееся осесимметричное колебание цилиндрической оболочки, возбуждаемое подвижной нагрузкой// Изв АН ЭССР. т.14. Сер.физ.-мат. и техн.наук.-1985.-№3.-С.414-421.
- 11.Нигуль У.К. О применимости приближенных теорий при переходных процессах деформации круговых цилиндрических оболочек//Труды VI. Всесоюзной конференции по теории пластин и оболочек. Баку, 1966.-М. Наука, 1966.-С.593-599.
- 12.Григолюк Э.И., Селезов И.Т. Неклассические теории колебаний стержней, пластин и оболочек // Итоги науки и техники. Сер. Механика тверд. деформир.тел.- Т.5.-М.: ВИНИТИ, 1973.-272 с.

13. Теория оболочек с учетом поперечного сдвига. Под. ред. проф. Галимова К.З.-Казань: изд-во КГУ, 1977.-212 с.

14. Бердиев Ш.Д. Продольно-радиальные колебания цилиндрической оболочки с учетом окружающей среды // Узб. Журнал Проблемы механики - 1998. №1.-С.22-27

15. Herrmann G., Mirsky I. Iherr-dimensional and shell-theory analysis of xially Symmetric motions of cylinders //I.Appl.Mech.-1956.-V.23,№4.-p.563-568.

16. Филлипов И.Г., Кудайназаров К. Приближенные уравнения нестационарных колебаний толстостенной круговой цилиндрической вязкоупругой оболочки// Изв.АН УзССР. Сер.техн.наук.-1980.-№2.С.41-45.

17. Шавелев А.А. Вынужденные колебания консольной цилиндрической оболочки переменной толщины при кинематическом возбуждении вдоль оси // Деп. В ЦНИИТЭИ приборстроения.-№3427. пр. от 10.09.1986 18.Berkowitz H.M. Longitudinal impact of a seminfinite Elastic Cylindrical shells // J. Appl. Mech.-1963.-v.30,№3.-P.347-354

19. Ильясов М.Х., Гасанов А.Х. Нестационарная задача о продольном ударе по вязкоупругому цилиндрической конечной длины//Изв.АН АзССР. Сер.физ.-техн. и мат. наук.-1986.-7.-№3.-С.50-57.

20. Клейн Г.К. Расчет подземных трубопроводов.-М.: Изд-во Литер. по стр-ву, 1969.-240с. 21. Тимошенко С.П., Янг Д.Х., Уивер У. Колебания в инженерном деле. Пер. с анг.-М.: Машиностроение, 1985.-472 с. 22. Исмайилов К. Сиқилган стерженлар, пластинкалар ва қобиқларнинг эластиклик чегарасидан кейинги устиворлиги. Тошкент, 2006, 175 б.